



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**



## “XATTI BOBURIY” XALQQA JORIY QILINGANMI?

### HAS THE “BABURNAMA CODE” BEEN INTRODUCED TO THE PUBLIC?

**Karimov Tolib Salim o‘g‘li**

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Lingvistika (o‘zbek tili) ta’lim

yo‘nalishi I bosqich magistranti

E-mail: [tolibkarimov418@gmail.com](mailto:tolibkarimov418@gmail.com)

ORKED: 0009 0006 5186 7591

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./ZWTE7357](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./ZWTE7357)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yaratilgan “Xatti Boburiy” yozuvining vujudga kelish jarayoni, nazariy asoslari hamda tarixiy-madaniy ahamiyati ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda bu yozuvning grafik tuzilishi, an’anaviy arab yozuvi tizimidan farqli jihatlari va uning yaratilishiga sabab bo‘lgan ehtiyojlar yoritiladi. Shuningdek, mazkur yozuvning keng xalq ommasi orasida joriy etilishi masalasi tarixiy manbalar va tadqiqotchilar qarashlari asosida baholanadi. Tahlillar natijasida xatti Boburiy yozuvi asosan saroy muhitida va adabiy-estetik doiralarda qo‘llangan bo‘lib, uni ommaviy yozuv tizimi sifatida xalq orasiga joriy etish imkoniyati cheklanganligi aniqlanadi. Bu maqola “Xatti Boburiy” ning o‘zbek yozuv madaniyati va xattotlik san’ati taraqqiyotidagi o‘rnini belgilashga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** alifbo, yozuv madaniyati, xattotlik san’ati, tarixiy yozuv.

**Anotation.** This article analyzes the process of creation, theoretical foundations and historical and cultural significance of the “Khatti Baburiy” script created by Zahiriddin Muhammad Babur from a scientific point of view. The study highlights the graphic structure of this script, its differences from the traditional Arabic writing system and the needs that led to its creation. Also, the issue of the introduction of this script among the general public is assessed based on historical sources and the views of researchers. As a result of the analysis, it is determined that the Khatti Baburiy script was used mainly in the palace environment and in literary and aesthetic circles, and the possibility of introducing it among the people as a mass writing system was limited. This article serves to determine the place of “Khatti Baburiy” in the development of Uzbek writing culture and the art of calligraphy.

**Keywords:** alphabet, writing culture, calligraphy, historical writing.

Bizga ma’lumki, madaniyat va ma’naviyat tariximizda XV asr, shuningdek, XVI asrning birinchi yarmi o‘lmas asarlarga g‘oyat boyligi, bu davrda xalqimiz insoniyatga ko‘pgina ilm va adabiyot daholarini yetkazib bergani bilan alohida



e'tiborga loyiq. Xususan, Xurosan va Movarounnahrda yuzlab shoir-u adib, muarrix va bastakor, san'at ahli barakali ijod qildi. Jumladan, adabiyot, nafis san'at, tabiat go'zalligiga yoshligidan mehr qo'ygan Zahiriddin, barcha Temuriy shahzodalar kabi bu ilmlarning asosini otasi saroyida yetuk ustozlar rahbarligida egalladi. Biroq uning betashvish yoshligi uzoqqa cho'zilmadi. 1494-yili otadan yetim qoldi. 12 yoshida otasi o'rniga Farg'ona ulusining hokimi etib ko'tarilgan. Bobur qalamni qilichga almashtirib, Andijon taxti uchun ukasi Jahongir Mirzo, amakisi Sulton Ahmad Mirzo, tog'asi Sulton Mahmudxon va boshqa raqiblarga qarshi kurashishga majbur bo'ldi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan murosaga kelish uchun unga yon berishga Farg'ona ulusini ikkiga taqsimlab, yarmini ukasiga topshirishga qaror qildi va o'zi Samarqand uchun olib borilayotgan kurashga kirishib ketdi. Bir necha yil davom etgan bu kurash qirg'inbarotdan boshqa biror natija bermadi: unda katta harbiy kuch bilan aralashgan. Shayboniixonning qo'li baland keldi va Bobur Samarqandni tashlab ketishga majbur bo'ldi. 1504-yili Shayboniixon Andijonni ham qo'lga kiritgandan so'ng Bobur janubga qarab yo'l oldi va Kobul ulusida o'z hokimiyatini o'rnatdi. 1505-1515-yillarda u Markaziy Osiyoga qaytishga bir necha bor urinib ko'rdi. Ammo bu urinishlardan hech qanday natija chiqmadi. So'ng o'z mavqeyini yanada mustahkamlash maqsadida 1519-1525-yillar davomida Hindistonni qo'lga kiritish uchun bir necha bor janglar olib bordi. 1526-yil aprel oyida Panipatda Hindiston Sultoni Ibrohim Lo'diy bilan va 1527-yili mart oyida Chitora hokimi Rano Sango bilan bo'lgan janglarda Boburning qo'li baland keldi. Tarixiy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Boburning Hindistonga yurishida Dehli hukmdori Ibrohim Sulton siyosatidan norozi bo'lgan Panjob hokimlari ham Boburni qo'llaganlar va Sikri jangidagi bu g'alaba Boburga Hindistonda o'z hukmronligini uzil kesil o'rnatish va Boburiylar sulolasini barpo etish imkoniyatini berdi. Ovro'po tarixchiligida “Buyuk mo'g'ullar” nomi bilan “g'alati mashhur” bo'lgan, aslida “Boburiylar sulolasi” Hindistonda 300 yildan ortiq hukmronlik qildi. Shuningdek, bu davrda Forsiy va turkiy tillarda yaratilgan durdona asarlardan ham forsiyzabon, ham turkiyzabon kitobxonlar birdek ma'naviy ozuqa oldilar. Har ikki tilda yaratilgan badiiy, tarixiy asarlar mazmunan bir-birini boyitdi. Darhaqiqat, yozuv – insoniyat yaratgan boyliklarni asrlardan asrlarga, avlodlardan avlodga yetkazuvchi bebaho boylikdir.

Tarixdan bizga ma'lumki, VIII asrda arablar bosqinidan so'ng islom dini, madaniyati, arab yozuvi joriy etildi. Bu arab yozuvida ko'plab asarlar, ish yuritish qog'ozlari, xat yozishmalari shu yozuvda olib borildi. Shoir asarlarida qadimgi turkiy so'zlar, shoir yashagan davrda muomalada bo'lgan, lekin hozirgi kunda qo'llanilmaydigan so'z va iboralar, arabcha, forsha o'zlashma so'zlar, tasavvufiy istilohlar mavjudki, bular nafaqat hozirgi avlod kitobxonlari, balki adib va adabiyotshunoslar, hatto navoiyshunos olimlar uchun ham asar mazmunini to'liq tushunib olishda qiyinchilik tug'diradi [G'ulomova, 2024: 76]. Bu asarlarning bizgacha yetib kelishida xattotlarimizning xizmatlari beqiyosdir [Abjalova,

G‘ulomova, 2022: 182]. Turkiy xalqlar o‘zining uzoq o‘tmishi davomida ko‘plab yozuvlardan, chunonchi, turk-runiy, arab, uyg‘ur yozuvidan foydalanib kelganlar. Boburiylar saltanatining asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur ham arab yozuvida savod chiqargan va shu yozuvning imkoniyatlarini, shuningdek, o‘zlashtirish usullarini juda ham yaxshi bilgan.

Darhaqiqat, Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk sarkarda, shoh bo‘lishiga qaramay san‘at, ilm-fan, adabiyot bilan hamnafas bo‘ldi hamda ko‘plab sohalarga oid asarlar yozdi. Jumladan, musulmon axloqiga oid “Mubbayin” asari, musiqa ilmiga oid “Musiqa sirlari” risolasi, “Harb ishi” nomli risolasi va uning nomini dunyoga yoygan “Vaqoye” (Voqealar), keyinchalik “Boburnoma” nomi orqali shuhrat topgan asardir. Bobur mirzo tilshunoslik borasida ham ko‘plab yutuqlarga erishdi va yigirma bir yoshida, ya‘ni 1503-1504-yillari G‘azni fatxidani so‘ng “Xatti Boburiy” yozuvini kashf etdi. Bobur bu yozuv bilan hazrat Navoiy shakllantirgan mumtoz o‘zbek tilining rivojini yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarish yo‘lidan bordi. Alisher Navoiy o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy tilning imkoniyat va afzalliklarini hamda arab va fors tillaridan kam emasligini isbot qilgan va shunga binoan turkiy tilning jahondagi mavqeyini boshqa mumtoz adabiy tillar darajasiga ko‘tarishni maqsad qilib qo‘ygan edi. Bu maqsadni hazrat Navoiydan so‘ng diliga jo qilgan Bobur mirzo turkiy tilning boy ohang va tovushlarini to‘liq ifoda etishga imkon beradigan yangi alifbo yaratish zarur degan fikrga keladi [Qodirov, 2010: 218]. Sababi, turkiy tilda arab tiliga nisbatan unli tovushlar ko‘p bo‘lgan. Boburning. “Xatti Boburiy” yozuvi 29 harfdan iborat bo‘lgan va u arab alifbosini tahrir qilib, yozuvni soddalashtirish va osonlashtirish yo‘lidan boradi va shu maqsadda uni turkiy tilning talaffuz me‘yorlariga moslashtirishga harakat qiladi. Bobur xati bilan ilk bor tanishgan kishi dastlabki o‘rganish jarayonidayoq yoza olganligi “Boburnoma” asarida keltirilgan, quyidagi parcha mazmunidan ham bilib olishimiz mumkin. “Murg‘obda mirzolar bilan muloqot qilganimda, qozi Ixtiyor, Muhammad Mir Yusuf bilan qolib meni ko‘rdilar, so‘ngra “Xatti Boburiy “ dan so‘z chiqib, harflarni so‘radi va ularni ketma-ketlikda yozib berdim, ular O‘sha bazmdayoq harflarni o‘qib, qoidasiga amal qilib bir nimalar yozdi [Bobur, 2012: 11]. Ko‘rinib turibdiki, Qozi Ixtiyorning o‘ta ziyakligi bilan bir qatorda Boburiy xatining o‘qish va yozishga naqadar qulayligini ko‘ramiz.

Demak, “Xatti Boburiy” xati yaratilganligi bu – aniq fakt. Ammo bu yozuv xalqqa joriy qilinganmi degan savol tug‘iladi. Keling shu xususida fikr yuritsak. Bobur zamonida yozuvni yangilash yoki yangi xatni joriy etishga urinish oson emas edi. Bu yozuv arab alifbosining. “zer – zabar” siz soddaroq, turkiy tillarga moslashtirilgan shakli bo‘lib, Bobur uni xalqqa amalda qo‘llash, targ‘ib etish borasida ko‘p bor uringan. Mutaxassislarning fikricha, Bobur davridagi mutaassib kuchlar “Xatti Boburiy”ni Qur‘oni Karim alifbosiga qarshi degan ig‘vo tarqatadi. Bu qarshilikni yengib o‘tish maqsadida Bobur mirzo mohir xattotlarga Qur‘oni Karimni “Xatti Boburiy” yozuvida chiroyli qilib ko‘chirtirib, bir nusxasini

Makkayi Mukarramaga jo‘natadi. Ammo bu yozuvni davlat miqyosida joriy etishga Makkadan ruxsat kelmaydi [Qodirov, 2010: 219]. Shu sababdan bo‘lsa kerak, bu yozuv xalqqa joriy etilmasdan qolib ketadi. Bu yozuvdan faqatgina Boburning o‘zi emas, balki o‘g‘illari, hamda yaqin odamlari bu xatdan yozishmalarda bimalol foydalanishgan. Hozirda

“Xatti Boburiy” yozuvida ko‘chirilgan Qur’onni Karim qo‘lyozmasi Eronning Mashhad shahridagi Imom Rizo yodgorlik majmuasi kutubxonasida, nusxasi esa Andijon shahridagi “Bobur va jahon madaniyati” kitob muzeyida saqlanadi. Boburshunos olimlarimiz ko‘plab izlanishlar olib bordilar. Mustaqillikkacha bo‘lgan davrda tarixchi olim Sabohat Azimjonovanning “Xatti Boburiy” haqida Dehlida bo‘lgan xalqaro konferensiyada qilgan ma‘ruzasi bu boradagi dastlabki dadil qadam bo‘ldi. Olima bu ma‘ruzasining qisqacha mazmunini Boburning Hind devoniga yozgan kirish so‘zida shunday bayon qiladi: “Xatti Boburiy” 28 ta arab alifbosiga asoslangan yangi alifbodir. Bobur o‘z alifbosini arab alifbosidagi” zeru-zabar”lardan holi qildi, ayni vaqtda arab alifbosiga keyinchalik kiritilgan to‘rtta forscha harflarni undan chiqarib tashladi [Qodirov, 2010: 218].

Atoqli yozuvchi va adabiyotshunos olim Pirimqul Qodirov Bobur haqida fikr yuritir ekan: “Bobur o‘z vataniga bo‘lgan muhabbatini faqat so‘zda emas, amalda ona tiliga bo‘lgan sadoqati, adabiyotimiz va fanimiz yuksalishiga qo‘shgan ulug‘ hissasi bilan isbot etdi”, bu esa ko‘rinib turibdiki, u “Xatti Boburiy”ni nazarda tutganligidan dalolat beradi. Istiqloлга erishganimizdan so‘ng, shuni g‘urur va iftixor bilan aytishimiz mumkinki, ajdodlarimizga ularning boy merosini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish yanada ortdi. Shu bilan birga Bobur ijodini o‘rganish va uni tatbiq etish borasida juda ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Andijon viloyatida Bobur haykali qad rostladi, Bobur muzeyi barpo etildi hamda 1992-yil fevral oyida

“Bobur xalqaro fondi” jamg‘armasi tashkil etildi, shuningdek, “Bobur izidan” deb ataluvchi xalqaro ilmiy ekspeditsiya uyushtirilib, Bobur va boburiylarga oid ma‘lumotlar to‘plandi. Ushbu safarning yutuqlari sifatida Mashhad muzeyidan Bobur yaratgan imlo bilan yozilgan Qur’oni Karim va Tehrondan “Bobur kulliyoti” qo‘lyozma nusxalarining vatanimizga keltirilganligi olamshumul bir kashfiyot bo‘ldi desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, turkiy xalqlar adabiyotida Bobur hayoti va ijodining o‘rganilishi boburshunoslik ilmida muhim o‘rinni egallaydi. Amalga oshirilgan tadqiqotlarda har tomonlama yondashish amaliyoti kuzatiladi. Bu kabi ishlar kelgusidagi tadqiqotlarda katta ahamiyat kasb etadi, albatta. Nazarimizda, bugungi kunda Bobur Mirzo ijodi yuzasidan qilingan bu kabi ishlarni bir tizimga solib tahlil va tavsif etish boburshunoslik ilmidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

### **Adabiyotlar:**



1. Abjalova M. G‘ulomova N. Alisher Navoi and the third renaissance period. *Procedia of Theoretical and Applied Sciences*. Vol. 4 (2023). 28.02.2023. – P.111-115. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD | *Procedia of Theoretical and Applied Sciences*.
2. Abjalova M., G‘ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratish texnologiyasi. // *O‘zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika*, – Toshkent: ToshDo‘TAU, 4 (1) /2023. – B. 14-31.
3. Abjalova M., Gulomova N. Author’s Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // *IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering*. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546
4. Abjalova M.A., G‘ulomova N.S. Alisher Navoiy mualliflik korpusi va uning imkoniyatlari. // *Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim va istiqbollar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook*. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 22.04.2022. – B. 89-93.
5. G‘ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun “Navodir ushshabob” devonidagi g‘azallarni grammatik teglash xususiyatlari. *O‘zMU xabarlar* // *Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali*. – Toshkent, 1/3/1 2024. ISSN: 2181-7324. – B.72-76.
6. Qodirov P. *Til va el*. Toshkent: Ma’naviyat, 2010. – B. 218.
7. Sirojiddinov S., Abjalova M., Normamatov S. and Gulomova N., “The Problem of the Archaic Words’ Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus, 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Antalya, Turkiye, 2024, pp. 48-53, doi: 10.1109/UBMK63289.2024.10773477.
8. Turaeva, B. Chronotope interpretation of modern uzbek novels’titles. *Philology Matters*, 2021(3), 3-21.
9. Zahiriddin Muhammad Bobur. *Boburnoma*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – B. 11.